IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA OLMOSHGA OID QARASHLAR

Usubjonzoda Zilola Yoqubjon qizi

Farg'ona viloyati Buvayda tumani

12-umumiy õrta ta'lim maktab o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida olmoshga oid qarashlar, olmoshning leksik ma'noga egalik yoki ega emasligi haqidagi fikrlar bayoniga bag‘ishlangan.

KALIT SO‘ZLAR: Olmosh,leksik ma'no, tushuncha.

KIRISH

Ma'lumki so‘zlar ma'noviy guruhiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi. Bu guruhlar ichida olmosh bo‘sh ishora ma'noli so‘z deb yuritiladi. “Ishoraviylik” ramzi bilan ataluvchi olmosh boshqa leksemalardan ajralib turadi.

Agar olmosh so‘zining kelib chiqish tarixiga nazar solsak, "Olmosh biror so‘z o‘rnida qo‘llaniladigan so‘z”. So‘roq olmoshlari juda rang-barang. Bu so‘z aslida "qo‘lga ol-”, " o‘ziniki qil-” ma'nosini anglatuvchi al- fe'lining, takror ma'nosini ifodalovchi -ma qo‘shimchasi qo‘shilgan alma shaklidan -sh harakat nomi qo‘shimchasi bilan hosil qilingan,keyinchalik harakat nomi shaklidagi fe'l otga ko‘chgan o‘zbek tilida a unlisi a` unlisiga almashgan: (al-+ma=alma-)+sh=almash=a`lma`sh.

O‘zbek tilshunosligida olmoshning doirasi va vazifasi zo‘rma-zo‘rakilik bilan ancha chegaralanib “ot, sifat, son o‘rnida qo‘llaniluvchi so‘z” sifatida o‘ta tor tushunilgan. Vaholanki,bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son balki fe'l, ravish,taqlid,undov, gap va hatto matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan.

Olmosh hamma vaqt ham qandaydir bir so‘zni "almashtirib” kelavermaydi. Masalan: Dodxo har kecha tarovih namozidan keyin halqaga qolar edi,bu kecha erta qaytdi.

ASOSIY QISM

Azim Hojiyev leksik ma'noga ega bo‘lgan yoki ega bo‘lmagan so‘z turkumlarini tavsiflar ekan,ayniqsa, olmoshning lisoniy tabiatiga doir ilg‘or qarashlari ilgari suradiki, ular bugungi tilshunoslik uchun ham muhim. Ma'lumki, olmoshlarda leksik ma'no bo‘lmasa ham,ular leksik ma'noli boshqa so‘z, gap va matnlar o‘rnida qo‘llanadi, ayni birliklarga ishora qiladi. Azim Hojiyev olmoshning fikr almashinuv jarayonidagi ana shu sifatini quyidagicha tavsiflaydi: “...garchi tushuncha ifodalamasa-da tushuncha ifodalaydigan minglab so‘zlarning o‘rnida birgina olmoshni qo‘llash mumkinligi o‘zaro aloqadagi juda katta imkoniyat hisoblanadi. Bu fikr almashinuvida faqat ixchamlikning ta'minlanishigina emas,balki aloqa quroli bo‘lgan tilning muhim xususiyatidir”.3 Darhaqiqat u,bu,shu,o‘sha kabi olmoshlarning fikrni ixcham va lo‘nda ifodalashga mo‘ljallangan lisoniy imkoniyat sifatida baholanishi olmoshga nisbatan “so‘zlar o‘rnida qo‘llaniladi,ularga ishora qiladi” deyish bilan cheklanmay chuqur lingvistik tadqiqotlar olib borishga undaydi. Olmoshga oid ayrim qarashlarda tilda nomlash xususiyatiga ega bo‘lmagan leksik birlik sanalmaydigan so‘zlar ham

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

bor ular faqat grammatik yoki modal ma'nolarni ifodalaydi. Bular tilshunoslikda yordamchi so‘z, modal so‘z, taqlidiy so‘z, undov va olmoshdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Hojiyev va Jamolxonov olmosh haqida fikrlarida uning leksik ma'noga ega emasligi ta'kidlansa, M.Mirtojiyev olmoshlarda leksik ma'no mavjudligini ta'kidlaydi. Masalan, ko‘rsatish olmoshlari o‘zbek tilida bu, shu, o‘sha, ana,mana va boshqalardan iborat. Shu olmoshi “qo‘lda tutib”, “ turgan”, “narsaga” leksik ma'nosini, bu olmoshi “nigoh ostidagi”, “narsaga” “ishora” leksik ma'nosini, u olmoshi “nigoh tushib turgan”, “narsaga”, “ishora” leksik ma'nosini, o‘sha olmoshi “nigoh tushmay turgan" "narsaga" ishora ma'nosini ifoda etadi.Ko‘rinib turibdiki, har bir ko‘rsatish olmoshi leksik ma'nosining o‘z komponentlari bor. Shu komponentlar esa muhim va umumlashtiruvchi belgilarni o‘zida aks ettiradi. Muhim va umumlashtiruvchi belgilar bo‘lgan bunday ishoraning ongda aks etishini tushuncha deb atash to‘g‘ri bo‘lsa kerak. Tushuncha muhim va umumiy belgilarga ega nimaningdir ongda aks etishidir.Bunday tushunchaning ongda aks etishi leksik ma'no hisoblanadi. Xuddi shunday kishilik olmoshlarida ham so‘zlovchi, tinglovchi,o‘zga shaxsga ishora qiladi va ma'lum ma'noda leksik ma'nosi mavjud. Masalan: Menga davlat kerak kerak emas,davlat kerak bo‘lsa, borar edim. Ushbu gapda men kishilik olmoshi so‘zlovchi shaxs leksik ma'nosini ifodalaydi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak bizningcha ham olmoshlar ma'lum ma'noda leksik ma'no ifodalaydi va bu ular ifodalagan tushunchalarda o‘z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirtojiyev.M O‘zbek tili semasiologiyasi Toshkent:Mumtoz so‘z 2010.

2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. --Toshkent: Universitet, 2000--- B.246.

3.Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: 2010.

4. Hojiyev A. Sovet davrida o‘zbek adabiy tilining taraqqiyoti. Toshken: Fan,1991.

5. Odilov Y. Azim Hojiyevning Leksika va semasiologiyaga oid qarashlari. O‘zbek tili va adabiyoti.2019.1-son

6. A'zamxonov S.X. Inson kapitali bilan bog‘liq tushunchalarning nazariy tahlili https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533 vol. 2 no. 20 (2023): pedagogical sciences and teaching methods 247-254–bet

7. A'zamxonov S.X. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/1106 vol. 2 no. 22 (2022): ijodkor o'qituvchi 381-386-bet

8. A'zamxonov S.X. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313/1272 vol. 1 no. 12 (2022): o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 453-459-bet

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

9. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/

10. Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 5. – С. 469-473.

11. Isropilov m. b. the role of pr technologies in ensuring the sustainable development of society //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 729-735.12. Akhmedova F. Professional Education Pharmaceutical Personnel in Uzbekistan- Eastern European Scientific Journal, 2018

WORDLY
KNOWLEDGE